IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: MW58172488

76-01-19-son
2026-yil 22-oktyabr

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va
iste’molchilar huquqlarini
himoya qilish qo‘mitasi raisi -
Xavflarni boshqarish qo‘mitasi raisi
H.S.Turaxujayev

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasining 3-son yig‘ilish BAYONI

2026-yil 22-oktyabr **Toshkent shahri**

Raislik qiluvchi: - **H. S. Turaxujayev** – O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi

Qatnashganlar: - U.Davlatov - Qo‘mita raisi o‘rinbosari;
A.Xakimov - Korrupsiyaga qarshi komplayens va ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i;
Sh.Shadmankulov - Yuridik ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i;
T.Abdullayev - Strategik rejalashtirish, metodologiya va transformatsiya bo‘limi bosh mutaxassisi;

Yig‘ilish kotibi - U. Toshboyev - Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi bosh mutaxassisi

KUN TARTIBI:

1. Qo‘mitada xavflarni boshqarish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

2. Qo‘mitada 2026-yilning 3-choragi davomida Xavflarni kamaytirish *(oldini olish va bartaraf etish)* bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi holatini muhokama qilish to‘g‘risida.

(H.Turaxujayev, U.Davlatov, A. Xakimov, Sh. Shadmankulov, T.Abdullaev, H.Turaxujayev)

Yig‘ilishni Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi *(keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita deb yuritiladi)* raisi H.Turaxujayev kirish so‘zi bilan ochib, kun tartibidagi masalalar bilan majlis qatnashchilarini tanishtirdi va ushbu holatlar bo‘yicha to‘liq ma’lumot berilishi uchun so‘zni Korrupsiyaga qarshi komplayens va ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i A.Xakimovga berdi.

Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha

A.Xakimov o‘z so‘zida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2025-yil 29-apreldagi 279-son qarori talablaridan kelib chiqib, Qo‘mita faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash, monitoring qilish hamda ularni kamaytirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilayotganligi haqida ma’lumot berdi.

Qo‘mitaning 2026-yil yanvar oyida o‘tkazilgan xavflar tahlili natijalariga ko‘ra, markaziy apparatning 17 ta boshqarma va bo‘limlari faoliyati doirasida jami 43 ta xavf aniqlanib, tegishli tartibda baholangan. Dastlabki baholash natijalariga ko‘ra, 1 ta xavf “yuqori”, 23 ta xavf “o‘rta” va 19 ta xavf “past” darajaga kiritilgan.

Mazkur xavflarni kamaytirish, oldini olish va bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan bo‘lib, uning ijrosi yuzasidan tarkibiy bo‘linmalar bilan tegishli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, xavflar reyestridagi ma’lumotlarni muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish, xavflar darajasidagi o‘zgarishlarni baholash, yangi xavflarni o‘z vaqtida aniqlash hamda xavflarni kamaytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarning natijadorligini ta’minlash zarurligi ta’kidlandi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha

Qo‘mitaning xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, 2026-yilning 3-choragi davomida amalga oshirilishi belgilangan tadbirlarning bajarilish holati muhokama qilindi.

Jumladan, **Chakana savdo va elektron tijorat bo‘limi** tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, hududiy boshqarmalarda kadrlar yetishmasligi bilan bog‘liq xavfni kamaytirish yuzasidan Qo‘mitaning 2025-yil 22-dekabrdagi 311-ShT-son buyrug‘i bilan belgilangan tarkibiy o‘zgarishlar hamda keyingi tashkiliy choralar inobatga olingan. Qo‘mitaning 2026-yil 25-iyundagi 154-ShT-son buyrug‘iga asosan T. Salimovning ishga qabul qilinishi natijasida bo‘limda kadrlar yetishmasligi bilan bog‘liq xavf bartaraf etilganligi ma’lum qilingan.

Tovar va raqamli bozorlarda raqobat muhitini rivojlantirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda aniq mezonlar mavjud emasligi bilan bog‘liq xavfni kamaytirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-sentabrdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishni yanada jadallashtirish va sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 520-son qaroriga muvofiq dastur doirasidagi ishlar ijro etilgan. Boshqarma ma’lumotida mazkur xavf bartaraf etilgan deb ko‘rsatilgan.

Iqtisodiy konsentratsiya bitimlari tuzilganda oldindan rozilik olinmasligi bilan bog‘liq xavfni kamaytirish maqsadida Soliq qo‘mitasi va Adliya vazirligining tegishli ma’lumotlar bazalari Qo‘mitaning “FairTech” yagona axborot tizimiga integratsiya qilingan. Boshqarma ushbu chora-tadbir bajarilganligi va mazkur xavf bartaraf etilganligini ma’lum qilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son qaroriga muvofiq, raqobat holati to‘liq tahlil qilinishi belgilangan tovar, moliya va raqamli bozorlarga oid xavfni kamaytirish yuzasidan 2026-yilning to‘qqiz oyi davomida jami 158 ta tovar va xizmatlar bozori tahlil qilingan. Shundan 23 ta bozorda raqobat muhiti holati, 40 ta tovar va ish-xizmatlar bozorida muqobil takliflar mavjudligi, 95 ta mahsulot bo‘yicha esa bozorning mahsulot bilan to‘yinganligi

yuzasidan ekspress-tahlillar o‘tkazilgan.

Boshqarma ma’lumotiga ko‘ra, tasdiqlangan choraklik reja ijrosi 100 foizni tashkil etgan. Yil yakuniga qadar qolgan 7 ta bozorni to‘liq tahlil qilish rejalashtirilgan. Hisobot davrida boshqarma faoliyati bo‘yicha yangi xavflar yuzaga kelmaganligi bildirilgan.

Muhokama davomida xavflarni kamaytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarning bajarilganligi bilan bir qatorda, ularning xavf darajasiga ta’sirini baholash, bartaraf etilgan deb hisoblangan xavflar bo‘yicha tegishli asoslovchi ma’lumotlarni saqlash va xavflar reyestridagi ma’lumotlarni amaldagi holatga muvofiqlashtirib borish zarurligi ta’kidlandi.

Yuqorida keltirilgan masalalar yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni muhokama qilgan holda “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi

QAROR QILADI:

1. Qo‘mitaning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga:

- Xavflarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini hamda bartaraf etilgan deb hisoblangan xavflar yuzasidan tasdiqlovchi (asoslovchi) hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash;

- Xavflarni kamaytirish chora-tadbirlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni har chorak yakuni bo‘yicha hisobot davridan keyingi oyning **10-sanasidan kechiktirmasdan** Ichki audit xizmatiga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

2. Tovar va raqamli bozorlarda raqobat muhitini rivojlantirish boshqarmasi tomonidan 2026-yil yakuniga qadar to‘liq tahlil qilinishi lozim bo‘lgan qolgan 7 ta bozor tahlilining belgilangan muddatlarda yakunlanishi ta’minlansin.

3. Ichki audit xizmatiga (U.Toshboyev) xavflarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining ijrosini muntazam monitoringini olib borish, tarkibiy bo‘linmalardan olingan ma’lumotlar umumlashtirish hamda monitoring natijalari yuzasidan Xavflarni boshqarish qo‘mitasiga axborot kiritib borish yuklatilsin.

4. Devonxona (F.Ikramova) mazkur bayonnomani Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalariga yuborilishini ta’minlasin.

5. Mazkur yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilish rais o‘rinbosari U.Davlatov zimmasiga yuklansin.

Kotib **U.Toshboyev**

MXT4961